

O'QUVCHI NUTQINING SHAKLLANISHIDA TARBIYAVIY OMILLAR VA PEDAGOGIK YONDASHUV.

Qaxorova Saidaoy Shomirzo qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti talabasi

Hasanov Husniddin

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogning o'quvchi nutqini rivojlantirishda faol metodlardan foydalanishi, fikrini erkin ifodalash ko'nikmasini tarbiyaviy jihatdan shakllantirish uchun talablar qisqacha bayon qilinadi. Qolaversa, nutq jarayonida o'quvchi psixologiyasini o'rganish, tanqidiy fikrlashga undovchi tavsiyalar berilib, pedagoglar egallashi lozim bo'lgan mas'uliyat yoritilib o'tiladi

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, faol metodlar, pedagogik etika, sof adabiy til, fonetika, orfoepiya, monologik nutq.

O'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish, so'z boyligini oshirish, eng asosiysi, mazmunli va yaxshi gapirishga o'rgatish pedagog uchun qo'yilgan talab hisoblanadi. Fransuz olimi Fozev Reman qayd qilganidek: "Yaxshi gapirish bu -- ovoz chiqarib turib o'ylash demakdir".

Demak, biz ustozlar zimmasidagi vazifa yosh avlodning nutqiy madaniyatini shakllantirish, ularni yaxshi gapirish, to'g'ri o'ylash, fikrlashga o'rgatish.

Farobiy fikriga ko'ra, ta'lim bu nafaqat aqliy rivojlanish, balki umuman ma'naviy rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevori. Ta'lim va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular shaxsni ma'nan kamolotga yetkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogning o'rni beqiyos bo'ladi.

Pedagogik etika qoidalari o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar majmuidan iboratdir. Shu bilan uni bilish va ularga amal qilish pedagogning o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishning sifat ko'rsatgichlarini hamda mehnat intizomini belgilaydigan mezondir, bu qoidalar Oliy ta'lim vazirligi, maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

Bundan kelib chiqadiki, ta'limda bolalarga tarbiya, ilm berish uchun avvalo o'qituvchi pedagogik talablarga javob bera oladigan darajada mahoratli bo'lishi kerak. O'qituvchi uchun namunali nutqni egallash bu uning o'z kasbiga tayyorligini belgilovchi ko'rsatgich hisoblanadi.

Avvalo, pedagog sof adabiy til qoidalariga rioya qilib nutq so'zlashi o'quvchi nutqining shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Buning uchun o'zbek tili lug'atini muntazam o'rganib borishi, adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda gapirishi, o'qib berishi, hikoya qilishi, voqelikni tasvirlashi hamda o'z fikrlarini to'g'ri tadbqiq qilishi zarur. Agar o'qituvchi nutqida nuqsonlar kuzatilsa, bir qancha foydali usullar bilan uni bartaraf etishi va rivojlantirishi mumkin.

Masalan, pedagog o'z nutqida namoyon bo'ladigan kamchiliklarini daftarga belgilab borishi, so'ng ulardan voz kechish bo'yicha reja tuzib, nutqini sof va ravon qilishi mumkin.

K. Obuxovskiy "Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud. Bu boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik ya'ni emotsional muloqotga ehtiyojmandlikdir" deb ta'kidlagan. Bolaning mukammal so'zlashishni o'rganishi sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatlarda ishtirok etishga to'g'ri keladi.

Buning uchun esa o'qituvchining unga nimalar so'zlab berishi, so'zlarini chuqur ma'nosi qanday ekanini tushunishi, shu bilan birga o'quvchi tanqidiy fikrlab javob berishi lozim.

O'quvchi bog'chada o'z fikrini insonlarga ayta olish ko'nikmasini, maktabda esa nutqni grammatik jihatdan shakllanishi hamda murakkab so'zlar va iboralar bilan nutqini mazmunli va tushunarli qilish uchun qoidalar bilan tanishib, hayotga tadbiiq qiladi. Bu borada onatili va adabiyot fanlari ularning maqsadlariga eng oliy yechim bo'ladi. 5-sinf darsligida fonetika va orfoepiya o'quvchi nutqida tovush madaniyatini rivojlantiradi. Negaki bu ikki jihatdan qurilgan nutqda to'g'ri nafas olish va chiqarish, ravshan gapirish, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatish, nutqining mazmundorligiga qarab uning ifodaliligiga, ovoz kuchi va nutq suratini qanday tartibga solishni o'rgatadi.

Nutqi yaxshi rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishib ketadi, o'z fikrlarini va istaklarini tushunarli tarzda bayon etadi. Aksincha, bolalardagi tushunarsiz nutq o'zaro insonlar bilan munosabatlarni murakkablashtiradi. O'quvchi xarakterida salbiy xususiyatlarni (odamovi, indamas, qo'rqqoq va hakoza) vujudga kelishiga sababchi bo'ladi.

O'qituvchi maktab yoshidagi bolalar uchun, asosan, 7-sinfga qadam qo'yganida dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishi zarur. Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplar shaklida ifodalangan hamda boshqalarga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan fikrlarning uyushgan qismi. O'quvchi monologik nutqga tayyorgarlik jarayonida, tinglovchi uning aytayotgan fikr – mulohazalaridan qiziqarli tasvirni bilishni istaydi. Shu boisdan, bola nutq rejasini mantiqan tuzish maqsadida bayon etishga oid iboralarni to'g'ri tanlash, gaplarni oqilona tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga harakat qiladi.

Ba'zan o'quvchilar orasida o'z maqsadini to'g'ri ifoda eta olmaydigan, ikki og'iz jumlani tushuntirish uchun qayerdan boshlashni bilmay gapni cho'zib o'tiradigan o'quvchilar ham bor. Xuddi shunday nuqsonlarga baham berish maqsadida matnni qayta tahrirlash metodidan foydalanilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bunda o'quvchiga moslab kichik – kichik matnlar tuzib beriladi. O'quvchi shu matn ichidan asosiy fikrni topa olishi lozim. Masalan: Ilmning foydasi shu qadar ko'pki, ta'riflagan bilan ado etish mumkin emas. Bizlarni jaholat qorong'uligidan qutqaradi. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat, dunyosiga chiqarib, yomon fe'llardan, bema'ni ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va adab sohibi qilib Allohga muhabbat va e'tiqodimizni orttiradi.

Payg'ambarimiz: "Ilmga amal qiluvchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qiluvchilardan bo'lmangiz"-deganlar. Demak, dastlab fikr nima haqida ekanligiga e'tabor qaratsak, bu matnda fikr ilm haqida ekan. Matndagi asosiy fikr esa: Ilmga amal qiluvchilardan bo'lingiz (7-sinf ona tili darsligi).

Shu tarzda o'quvchi fikrini bayon qilishda asosiy gapni qisqa va lo'nda tushuntirishi, ko'plab keraksiz gaplardan yiroq bo'lib tinglovchiga ta'sir qilishni o'rganadi. Matnni qayta tahrirlab aytib berishda undagi murakkab bo'lgan so'zlar o'rganilishi, grammatik

elementlar bilan tanishib chiqish, matnga mos sarlavha qo'yish kabi topshiriqlar o'quvchini tanqidiy fikrlashga undaydi.

Shuningdek, o'quvchi nutqining shakllanishida pedagogning roli asosiy o'rin tutadi va bir qancha yondashuvlar bilan nutqning shakllanishiga ko'maklashadi.

1. Kommunikativ yondashuv

Bu yondashuvda asosiy maqsad- o'quvchining insonlar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatini yuzaga keltirish.

Ziddiyatli o'yinlar : dars jarayonida hayotiy vaziyatlarni (do'konda , bozorda , ko'chada , intervyu jarayonida) o'quvchilar tomonidan ijro ettirish.

Erkin muloqot: o'quvchilarga o'z fikrini bemalol va erkin bayon etish imkoniyatini berish. shuningdek, o'quvchi nutqi davomida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ysa , pedagog uning tengqurlarini kalaka qilishidan qaytarishi kerak. Shu nuqtai nazardan bo'lajak notiqning psixologik holati ijobiy tomonga shakllanadi.

2. Individual yondashuv

Bu yondashuvda har bir o'quvchi shaxsiy xususiyatlari , lisoni va nutqiy rivojlanish darajasi inobatga olinadi.

Topshiriqlar: nutqi sustroq o'quvchilar bilan alohida lugat ishlash, uning yoqtirgan mavzusida (gullar , texnologiya va sport) gapirishi uchun zarur sharoitlar yaratish

3. Kreativ va tanqidiy yondashuv

O'quvchilarni tayyor qoliplardan chiqib mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Munozaralar: bahsli savollar ustida munozara qilish orqali argument keltirish ko'nikmasini shakllantirish.

Ziddiyatli o'yinlar: Ma'lum bir matn o'qiladi, o'quvchi matndan olgan tushunchalarini lidaqiqada so'zlab berishi zarur. So'ngra 30 soniyada va o'sha tushunchalarini aniq va lo'nda qilib 15 soniyada gapirib berishi lozim.

F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, I).RBabayeva, DAbdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqa tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik—o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa - ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon (stixiyali jarayon o'z holicha kechadigan , kimdir maxsus boshqarmayotgan jarayon .Masalan:

Jamiyatda : odamlarning to'satdan noroozilik namoyishi , tartibsiz migratsiya .

Psixologiyada : kayfiyatning kutilmaganda o'zgarishi , hissiyotlarning to'satdan portlashi .

Nutq jarayonida : tayyorgarliksiz , o'ylamasdan gapirib yuborish.) emas, degan fikrga asoslanadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

Pedagog shunday kasb egasi-ki, u mamlakat kelajagini ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgartirishda muhim inson sanaladi. Negaki kelajak yoshlar qo'lida ekan, ularga ta'lim-tarbiya berish o'qituvchi vazifasidir. Pedagogning ilmiy va nutqiy ko'nikmalari bolaning har tomonlama mukammal inson bo'lishida asosiy omil bo'lib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Babaeva D.R. Nutq o'qitirish metodikasi T. Fan va texnologiyalar. 2009 y
2. Babaeva D.R. Nutq o'qitirish nazariyasi va metodikasi. Darling. T.TDPU 2018 y
3. Qodirova F.K. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillar.
T.2006 y
4. Q.Shodiyeva. Nutq o'qitirish uslubiyati. "O'QITUVCHI" nashriyoti T.2008y
5. 7-sinf ona tili darsligi T.2022y